

2.2.

**O'zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligi va tizim tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurashish
dasturi ijrosi yuzasidan
MA'LUMOT**

2026-yilning 1-yanvar holatiga

T/r	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Amalga oshirilgan ishlar (xujjat raqami va qachon tasdiqlangan hamda boshqa asoslar bilan ko'rsatish zarur)
1.	Mahsulotlar va xizmatlarning texnik reglamantlarda belgilangan talablarga muvofiqlikni baholash uchun zarur bo'lgan mahsulot namunalarini olish jarayonida bevosita jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish imkoni mavjud.	Mahsulotlarni muvofiqligini baholash jarayonida muvofiqlikni xodimi maxsulotlardan namuna olish va uni identifikatsiya qilishda tegishli bilim va ko'nikmasini oshirish.	2025-yil davomida	Mahsulotlarni muvofiqligini baholash jarayonida muvofiqlikni xodimi maxsulotlardan namuna olish va uni identifikatsiya qilishda tegishli bilim va ko'nikmasini oshirish bo'yicha yil boshidan buyon jami 662 nafar (shundan, "O'zTest" DM 483 nafar, Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi" 22 nafar, "O'zbekiston standartlar instituti" 13 nafar "O'zbekiston akkreditatsiya markazi" DM 2 nafar va "O'MMI" DM dan 142 nafar) "O'zbekiston standartlar instituti" DM malaka oshirish kurslarida o'qitildi. Yuqorida keltirib o'tilgan raqamlashtirish chora-tadbirlari natijasida sohada ko'rsatiladigan xizmatlarning shaffofligini oshirish, ortiqcha vaqt va sarf-harajatlarning oldini olishga erishilmoqda. Shuningdek, raqamlashtirish orqali inson omilini salmoqli ravishda qisqartirishga erishilmoqda. Jumladan, TRIS axborot tizimida o'rnatilgan tartibda malakasini oshirmagan va attestatsiyadan o'tmagan xodimlarni, metrologik ko'rikdan o'tmagan o'lchash vositalarini muvofiqlikni baholash jarayonlaridagi ishtirokini avtomatik ravishda cheklash, namuna olish va sinovlarni o'tkazish bilan bog'liq jarayonlarda lokatsiya biriktirish, Face ID va elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash funksiyalarini kiritish orqali namuna tanlamasdan va/yoki sinovlarni o'tkazmasdan muvofiqlikni sertifikatlarini rasmiylashtirish, shuningdek boshqa xodimlar nomidan hujjat rasmiylashtirish kabi holatlarni oldi olinmoqda.
2.	Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ xujjatlar talablariga rioya etilishini, o'lchashlarning yagona birlikda	Sertifikatlashtirish idoralari va sinov laboratoriyalari faoliyatini masofaviy tarzda tekshirish.	2025-yil davomida	Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 28-fevraldagi "O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-91-sonli Qaroriga asosan Texnik jihatdan

	bo'lishi va to'g'riligi, mavjud sertifikatlashtirish qoidalarini ta'minlanishini tashkil etishda jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan bevosita aloqa, shuningdek o'tkazilgan davlat nazorati bayonnomalariga o'zgartirishlar kiritish xavfi mavjud.			tartibga solish sohasida shaffoflikni ta'minlash va korrupsiyadan holi tizimni yaratish maqsadida asosiy imkoniyatlarni nazarda tutuvchi «Texnik tartibga solish» milliy axborot tizimini (https://tris.uz/) ishga tushirildi. Natijada, 76 ta sertifikatlashtirish organlaridan tomonidan ramiylashtirilgan 873 ta muvofiqlik sertifikatlari ma'sul xodimlarning shaxsiy elektron kalitlari orqali masofaviy tarzda tekshirildi. Shunga ko'ra, qo'pol kamchiliklarga yo'l qo'ygan 8 ta sertifikatlashtirish organlarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakilni xabardor qilgan holda tekshiruv o'tkazishga tashabbus qilindi. O'zbekiston standartlar institutidagi Savdodagi texnik to'siqlar bo'yicha axborot markazi uchun sun'iy intellekt asosida "AI-tarjimon" dasturi ishga tushirildi. Ushbu dastur: <i>ko'plab formatdagi fayllarni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qila oladi (PDF, DOC, DOCX va boshq.);</i> <i>sun'iy intellektning so'nggi modellari (GPT-4, 4o, o1 va boshqa) imkoniyatlaridan to'liq foydalaniladi;</i> <i>standartlarni tarjima qilish vaqtini 10 barobarga qisqartirish (60 betli PDF formatdagi xalqaro standartni ingliz tilidan o'zbek tiliga 1 daqiqada tarjima qiladi);</i> <i>texnik jihatdan tartibga solish sohasida uzluksiz va sifatli konsultativ yordam ko'rsatuvchi chat-bot (sun'iy yordamchi) ishga tushirish imkoniyatini bermoqda.</i> Shuningdek, muvofiqlik sertifikatlarining haqiqiylikini tekshirish maqsadida ishga tushirilgan maxsus telegram bot orqali jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan 300 mingdan ortiq muvofiqlik sertifikatini tekshirish imkoniyati yaratilgan. Bugungi kunga qadar ushbu tizimdan 6,1 ming marotaba foydalanilgan.
3.	Davlat metrologiya tekshiruvini va nazoratini amalga oshirish yuzasidan joyiga chiqqan xodimlarning metrologik xizmat ko'rsatishida	1.Barcha bayonnomalarni elektron tarzda to'ldirish.	2025-yil davomida	Davlat metrologiya tekshiruvini o'tkazish davomida "tris.uz" dasturi barcha bayonnomalar elektron tarzda to'ldirilib, QR-kod bilan tasdiqlanishi yo'lga qo'yish ishlari amalga oshirilmoqda.

	jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan bevosita aloqa mavjud.	2. Barcha bayonnomalari imzolari QR-kod bilan tasdiqlashni yo'lga qo'yish.		O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 28-fevralda PQ-91-son qaroriga asosan “Texnik tartibga solish” milliy axborot tizimi ishlab chiqilib, ishga tushirilgan . Amalda, bir biridan tarqoq holda ishlayotgan “e-standart” , “e-metrologiya” , “e-sertifikatsiya” va shu kabi axborot tizimlari o'rniga mutlaqo yangi, yagona yondashuv asosida eko tizim ishlab chiqildi.
4.	Akkreditatsiya uchun buyurtmani qabul qilishda yuridik shaxslar bilan bevosita aloqa mavjudligi, (o'zaro til biriktirish ijro muddati yoki baholovchilarga pora berishda vositachilik qilish).	Akkreditatsiyaga buyurtmani to'liq elektron shaklda qabul qilish https://e.akkred.uz avtomatlashtirilgan axborot tizimni takomillashtirish.	2025-yil davomida	Akkreditatsiyaga buyurtmani to'liq elektron shaklda qabul qilish. yo'lga qo'yilgan. Shu kunga qadar 427 ta murojaat qabul qilingan e.akkred.uz avtomatlashtirilgan axborot tizimni takomillashtirilmoqda. Ushbu axborot tizimi “tris.uz” elektron manzilida ishga tushirilgan bo'lib, standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlash, akkreditatsiyalash va davlat nazorati yo'nalishlarida jarayonlarni raqamlashtirish, barcha sertifikat, xulosa, bayonnom, xabarnoma va shu kabi hujjatlarni QR-kod yordamida elektron rasmiylashtirish yo'lga qo'yilgan va natijada birgina muvoqlikni baholash jarayonlarida 12 turdagi qog'oz shakldagi hujjatlardan, jami sohada 40 turga yaqin qog'oz shakldagi hujjatlardan voz kechish imkoniyatini berdi. Muvoqlikni baholash jarayonida ushbu qog'ozlardan voz kechildi: 1. Ariza bo'yicha qaror; 2. IMO to'g'risidagi ma'lumotlar; 3. Namuna tanlash va identifikatsiya qilish dalolatnomasi; 4. Sinov bayonnomasi; 5. Ishlab chiqarishni baholash dalolatnomasi; 6. Muvoqlik sertifikat berish yoki uni berishni rad etish qarori; 7. Namunani hisobdan chiqarilganligi (qaytarib berilganligi) to'g'risidagi dalolatnoma; 8. Muvoqlik sertifikati; 9. Muvoqlik deklaratsiyasi; 10. Kam sonli mahsulotlarga rasmiylashtiriladigan xat; 11. Yig'ish va o'rnatishdan keyingi tekshiriladigan mahsulotlarga beriladigan xat; 12. SES tomonidan taqdim etiladigan xulosa va bayonnomalar.

				Hozirda mazkur tizim 12 ta moduldan iborat bo'lib, kelgusida yangi yo'nalishdagi elektron xizmatlar, axborot tizimlari va resurslari mazkur eko tizimda navbatdagi modul sifatida ishga tushirib boriladi. Ushbu tizimda 100 dan ortiq sertifikatlash organlari, 200 dan ortiq sinov laboratoriyalari, 31 ta texnik qo'mita ulangan bo'lib, sohada faoliyat olib borayotgan 3 500 nafardan ortiq xodimlari faoliyati raqamlashgan holda olib borilmoqda. Idoralararo hamkorlikni rivojlantirish maqsadida 14 ta vazirlik va idoralar hamda 27 ta xususiy sektor vakillari (jami 41 ta) bilan o'rnatilgan tartibda integratsiya orqali ma'lumotlar almashinuvi yo'lga qo'yildi (2024 yilda bu ko'rsatkich 2 tani tashkil etgan).
5.	Akkreditatsiya ob'ektlarini baholash natijalari bo'yicha qarorlar qabul qilishda manfaatlar to'qnashuvi va MBolar o'rtasidagi raqobatni cheklash.	Akkreditatsiya komissiyasining ish jarayonini audio-video uskunalar bilan kuzatib borish, qayd yetilgan audio-video yozuvlar bilan ishlash, ularni saqlash va yo'q qilish qoidalarini tegishli tartib-taomillarga kiritish.	2025-yil davomida	Akkreditatsiya komissiyasining ish jarayonini audio-video uskunalar bilan kuzatib borish, qayd yetilgan audio-video yozuvlar bilan ishlash, ularni saqlash va yo'q qilish qoidalarini tegishli tartib-taomillarga kiritilgan. Barcha audio video yozuvlar Markazning server bazasida saqlanmoqda. (Jami 91 ta) Akkreditatsiya ob'ektlarini baholash natijalari bo'yicha qarorlar qabul qilishda manfaatlar to'qnashuvi va MBolar o'rtasidagi raqobatni cheklash uchun axborot tizimi "tris.uz" elektron manzilida ishga tushirilgan bo'lib, standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlash, akkreditatsiyalash va davlat nazorati yo'nalishlarida jarayonlarni raqamlashtirish, barcha sertifikat, xulosa, bayonnoma, xabarnoma va shu kabi hujjatlarni QR-kod yordamida elektron rasmiylashtirish yo'lga qo'yilgan. Natijada, u orqali elektron nazorat qilinmoqda.

6.	Laboratoriyalarni ma'qullashdan o'tish uchun ariza va hujjatlarni ko'rib chiqishda, buyurtmani qabul qilishda yuridik shaxslar bilan bevosita aloqa mavjudligi.	Laboratoriyani ma'qullashdan o'tishga buyurtmani to'liq elektron shaklda qabul qilish approval@depstan.uz Avtomatlashtirilgan axborot tizimni takomillashtirish.	2025-yil davomida	Texnik jihatdan tartiga solish sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan buyurtmani axborot tizimi "tris.uz" orqali to'liq elektron shaklda qabul qilish yo'lga qo'yilgan. Shu kunga qadar 725 ta murojaat qabul qilingan avtomatlashtirilgan approval@depstan.uz axborot tizimi takomil-lashtirilmoqda.
7.	Davlat xaridlari jarayonida, tovarlar yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha shartnomalar tuzish, ularning bajarilishini nazorat qilishda o'tkazishda manfaatlar to'qnashuvini oldini olish, vakolatini suiste'mol qilish, mansab vakolati doirasidan chetga chiqish hamda mansabga sovuqqonlik bilan qarash.	Xaridlar elektron yoki auksion orqali to'liq o'tkazilishi, to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan shartnomalar davomida xarid jarayoni ishtirokchilarini tekshirish.	2025-yil yakuniga qadar	Agentlik va tizim tashkilotlarida Xarid komissiyalari tuzilgan bo'lib, uning ekspertizasi komlaens-nazorat bo'linmalari tomonidan o'rganilishi yulga quyilgan. Xarid portaliga to'g'ridan-to'g'ri komlpnen-nazort xodimlariga baholash uchun imkoniyat (dostup) berilgan. Xarid komissiya si tarkibiga VM-446 qarorning 2-ilovasi 1-bagndiga muvofiq mustaqil a'zo tayinlandi va u orqali jamoatchilik nazorati amalga oshirilmoqda. Har chorakda, xarid portali orqali amalga oshiriladigan ishlar buyicha shaffof monitoring tizimi joriy etilgan. Natijad, joriy yil davomida jami 4005 ta (<i>shundan Agentlik 95 ta, Akkreditatsiya DM 239 ta, "O'zMMI" DM 1426 ta, "O'zTest" DM 1791 ta, Standartlar instituti DM 365 ta va Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat qilish inspeksiyasi 89 ta</i>) shartnomalar bo'yicha xaridlar elektron do'kon, tender orqali hamda yagona yetkazib beruvchilar bilan, to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan shartnomalar orqali amalga oshirilmoqda. Kontragentlar doimiy ravishda tekshirib borilmoqda.
8.	Muvofiqlikni baholash organlari shakllantirish jarayonida manfaatlar to'qnashuvini to'liq bartaraf yetish.	Tegishli tartib-taomillarga baholovchilar va texnik ekspertlarning rotatsiyasi prinsipini kiritish, MBO akkreditatsiyasidan qatnashgan mutaxassislarni keyinchalik shu MBO yoki laboratoriyalarning davriy baholashda qatnashmasligini ta'minlash	2025-yil davomida	Kadrlar bo'limi bilan birgalikda MBO muvofiqlikni baxolash organlari)ga boradigan baholash guruhlarini shakllantirish jarayonida M.T resstri hamda baholovchi va texnik ekspertlarni ob'ektivkalari bilan manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik maqsadida o'rganib chiqiladi. Shundan so'ng, baholash guruhi tarkibi o'sha ob'ektga yuborilib, guruh a'zolariga e'tirozlari, manfaatlar to'qnashuvi holatlari bor yo'qligini aniqlash maqsadida ular bilan kelishiladi.

9.	Nomzodlarni ishga qabul qilish va nomzodlarni shahodatlash jarayonida mansab vakolatini suiste'mol qilish, mansab vakolati doirasidan chetga chiqish, mansabga sovuqqonlik bilan qarash va h.k.	Attestatsiya komissiyasining ish jarayonini audio-video uskunalar bilan kuzatib borish hamda qayd yetilgan audio-video yozuvlar bilan ishlash, ularni saqlash va yò'q qilish qoidalarini tegishli tartib-taomillar asosida amalga oshirish.	2025-yil davomida	Nomzodlarni tanlash va o'rganish buyicha Maxsus komissiya tuzilgan bo'lib, u orqali har bir jarayon audio-video yozularga qayd etib borilmoqda. Nomzodlarni tanlashda manfaatlar to'qnashuvini oldini olish uchun o'rganish amalga oshiriladi. Unda, talabgorning mumkin bo'lgan tarixi, oxirgi ish joyi, yashash joyi, ma'lumoti, tadbirkorlik sub'ekti va uning ishtirokchisi ekanligi o'rganiladi. Bundan, elektron dasturi orqali har bir nomzod baholanilib, ularga elektron axborot beriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PQ-5177-son qarori talablarining ijrosini ta'minlash borasida muvofiq jami 135 nafar (<i>shundan, Agentlikda 8 nafar, Akkreditatsiya DM 5 nafar, "O'zMMI" DMda 13 nafar, "O'zTest" DMda 52 nafar, "Standartlar instituti" DMda 40 nafar va Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi nazorat inspeksiyasida 17 nafar</i>) nomzodlarni ishga qabul qilish ochiq tanlov asosida amalga oshirish hamda tanlov doirasida o'tkaziladigan sinov tadbirlarini Internet tarmog'i orqali real vaqt rejimida kuzatishni, shuningdek qabul komissiyasining faoliyati ochiq va shaffof o'tkazilishini ta'minlangan.
----	---	---	-------------------	--

Korrupsiyaga qarshi kurashish va
komplaens nazorati bo'limi
boshlig'i



Q.Raximov